

DINIY QADRIYATLAR ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ORQALI ZAMONAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH**Majidova Mahliyo Shomil qizi***QarDU Iqtisodiyot fakulteti**Turizm yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**Email: mahliyomajidova45@gmail.com*

Annotatsiya: *Ekologik muammolar kuchayib borayotgan davrda insonlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida diniy qadriyatlarimizni o‘rnatib qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Xususan, Islom ta‘limotida tabiatga va barcha tirik organizmlarga bo‘lgan yaxshi munosabat, resurslardan faqat zarurat yuzasidan oqilona tarzda foydalanish va shu yo‘l orqali yuzaga keladigan isrofgarchilikni oldini olish va ekologik muvozanatni saqlashga doir qarashlar mavjudligi, buning yorqin misoli hisoblanadi. Bir qancha tadqiqotlar davomida ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari, uni shakllantirish mexanizmlari hamda diniy-axloqiy qadriyatlarning ushbu jarayonga ta‘siri o‘rganilgan va shu tadqiqotlar asosida ijobiy natijalar qayd etilganligi barchamizga ma‘lum hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda ekologik tarbiya tizimiga diniy yondashuvni integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari katta, hamda uning turizmga bo‘lgan estetik ta‘siri va bu orqali mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasi ham yuqori. Maqolada ekoturizm va ziyorat turizmi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ekologik muammolarni kamaytirishda diniy-axloqiy yondashuvning roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik barqarorlik, diniy qadriyatlar, muqaddas manbalar, xalqaro tadqiqotlar, isrofgarchilik, turizm siyosati, madaniy me‘roslar*

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, United Nations World Tourism Organization ma‘lumotlariga ko‘ra, turizm global yalpi ichki mahsulotning muhim qismlaridan birini tashkil etib, millionlab ish o‘rinlarini yaratmoqda. Ammo bilamizki har bir soha rivoji uchun ekologik muhit barqaror bo‘lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy turizmni rivojlantirishda ekologik barqarorlik, madaniy merosni asrash va diniy qadriyatlarni sohaga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, diniy qadriyatlar inson ongida tabiatga hurmat, poklik, isrof qilmaslik kabi tushunchalarni shakllantiradi. Bu esa ekologik madaniyatning rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi – diniy qadriyatlar asosida ekologik madaniyatni shakllantirish orqali zamonaviy turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilishdir.

Hozirgi davrda ekologik muammolar tobora keskinlashib borayotgan bir davrda turizm sohasini barqaror rivojlantirishi juda katta ahamiyat kasb etayotgani har birimizga ma'lum. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muvozanatning buzilishi turizmning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ekologik madaniyatni shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyat esa nafaqat ilmiy bilimlar, balki ma'naviy va diniy qadriyatlar asosida rivojlantiriladi. Globallashuv davrida tabiatga insonlar tomonidan katta zarar yetkazilayotgani dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rilmoqda. Uni oldini olish uchun davlatimiz tomonidan bir-nechta chora tadbirlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, odamlar ongida va shaxsiyatida tabiatda bo'lgan adolatsiz munosabatlar hali hamon aks etmoqda. Xattoki o'zimiz ham, aksariyat holatlarda atrof-muhitga qanday zarar yetkazayotganligimizni sezmay ham qolamiz, chunki bu omillarni biz kichik o'zgarish sifatida ko'ramiz. Ammo bu kichik o'zgarishlar katta ekologik muammolarga sabab bo'lishi mumkinligi hayolimizga kelmasligi mumkin. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam, Osiyo mintaqasida yashovchi kishilar soni taxminan 4.7 milliard kishini tashkil etadigan bo'lsa va har 10 kishidan 1 tasi kuniga o'rtacha hisobda 0.7 kg li zararli chiqindilari bilan tabiatni zararlasa, har kuni 329 ming tonna og'irlikdagi chiqindi hosil bo'ladi va bu taxminan 493 500 m³ hududni egallab oladi. Har kuni hosil bo'layotgan bu chiqindilar oqava suv quvurlarini, ichimlik suvi kanallarini, atmosfera havosini zararlashi, tuproq tarkibidagi unumdorlikni pasaytirib yuborishi va eng asosiysi ekologik go'zallikni yomon ahvolga keltirishi va buning oqibatida chetdan keladigan mehmonlar ongida hududga bo'lgan yomon ta'surotni qoldirishi mumkin. Ko'rinib turibdiki bu omillar nafaqat insonlar hayotiga, balki iqtisodiyotga ham katta zarar yetkazadi.

Asosiy qism: Ekologik madaniyatni jamoatda shakllantirish uchun diniy madaniyatning ham o'rni katta hisoblanadi. Ayniqsa musulmonlar erishishi kerak bo'lgan va ulardan talab etiladigan insoniylik tuyg'ulari, muqaddas kitobimiz hisoblangan Qur'oni Karimda va undan keyingi muqaddas manba hisoblangan hadisi sharifda aytib o'tilgan. Bundan tashqari yurtimiz hududidan yetishib chiqqan buyuk allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Moturudiy, Abu Nasr Forobiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiylarning yaratgan asarlarida ham komil inson bo'lish uchun hatto tabiatga qanday yaxshi munosabatda bo'lish haqida ko'plab go'zal fikrlar berib o'tilgan. Bunday muqaddas manbalarda komil inson bo'lish uchun har bir inson sabr-toqatli bo'lishi, borliqdagi tirik jonzotlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishi va eng asosiysi tabiatni asrab-avaylashi kerakligi aytilgan. Har doim ekologik madaniyatni shakllantirishda va uni keng targ'ib qilishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega hisoblangan, ular orqali ko'p hollarda, insonlarda tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirib borish samarali vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ekologik madaniyat, barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, ekologik ong va mas‘uliyat darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilib, shu bilan birgalikda yaxshi ta‘minlangan, zamonaviy jihozlardan ham keng ko‘lamda foydalanishga katta etibor qaratiladi. Ilmiy manbalarda ekologik madaniyat insonning kundalik faoliyati, xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonida namoyon bo‘lishi ta‘kidlangan. Shu sababli ekologik madaniyatni shakllantirish barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Shu jihatlariga etibor bergan holda faqat ishchi xodimlardangina emas, balki barcha jamiyat a‘zolaridan o‘z hududlari tozaligiga mas‘uliyat bilan yondashishlari talab qilinadi.

Turizm sohasining rivojlanishi bevosita ekologik muhitga bog‘liq ekanligi ko‘plab manbalarda qayd etilgan. Tabiiy resurslarning saqlanishi, ekologik tozalikka rioya etilishi va muhitning barqarorligi turistlar oqimini keskin oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik omillar turizm rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ekoturizm rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil hududlarni himoya ostiga olish va ularni yanada zamonaviylashtirib borish yo‘li orqali turistlar nigohida jozibador muhitni yaratish muhim iqtisodiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Ekologik muhitning zararlanishi esa turizm infratuzilmasi samaradorligini pasaytiradi va turistlar oqimining kamayishiga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi. Birgina ekoturistik hududlardagina emas, ziyoratchilar uchun moslashtirilgan joylarda ham ekologik tozalik juda muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda juda ko‘p ziyoratgohlar mavjud hisoblanib, ular joylashgan viloyatlar, shaharlar va ba‘zida mahallalar hududida ham bir nechta ziyoratgohlarini topish mumkin. Masalan Toshkent viloyatida “Buzruk ota”, “Hazrati Imom majmuasi”, “Kaffol Shohiy maqbarasi”, Buxoro viloyatida “Mir Arab” madrasasi, “Xo‘ja Ubbon ibn Usmon”, “Xo‘ja Niyoz Xorazmiy”, “Sayyid Amir Kulol” muqaddas qadamjolari, Samarqand viloyatidagi “Imom Al Buxoriy” majmuasi, “Shohi Zinda” majmuasi, “Xo‘ja Doniyor” maqbarasi, “Imom Moturidiy” maqbarasi, Qashqadaryo viloyatidagi “Hazrati Sulton” maqbarasi, “Dorut Tilovat” majmuasi, “Langar ota” majmuasi, “Shamsiddin Kulol” maqbarasi, Farg‘ona viloyatidagi “Xo‘ja Ahror Valiy” ziyoratgohi, “Shohimardon” majmuasi, “Burhoniddin Marg‘inoniy” majmuasi, “Xo‘ja Abdulloh Ansoriy” qadamjosi kabi joylarni misol qilib olishimiz mumkin. Bu hududlardan tashqari boshqa viloyatlarda ham juda ko‘plab ziyoratgohlar mavjud, shuningdek bizga nomalum bo‘lgan, ammo qadimda ahamiyati juda katta hisoblangan muqaddas joylar aniqlanib, O‘zbekistondagi ziyoratgohlar ro‘yxatini boyitib bormoqda.

Barqaror turizm tushunchasi bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlangan holda turizmni rivojlantirishni anglatadi. UNWTO tomonidan

berilgan ta’rifga ko‘ra, barqaror turizm barcha turdagi turizm shakllariga tatbiq etilishi mumkin bo‘lib, u uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Ekologik madaniyat esa insonning tabiatga ongli munosabati, ekologik bilimlari va ekologik xulq-atvorini o‘z ichiga oladi. United Nations Environment Programme ta’kidlaganidek, barqaror rivojlanish uchun ekologik madaniyatni shakllantirish eng muhim omil hisoblanadi. Diniy qadriyatlar esa inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular axloqiy me’yorlarni shakllantiradi. Ko‘pgina dinlarda tabiatni asrash, poklik, isrof qilmaslik va muvozanatni saqlash muhim tamoyil sifatida qaraladi. Ma’lumotlariga ko‘ra, diniy turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki madaniy va axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Diniy qadriyatlar asosida ekologik madaniyatni shakllantirish quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bular diniy ta’limot orqali ekologik ongni shakllantirish, ziyoratgohlarda ekologik qoidalarni joriy etish, diniy tashkilotlar ekologik targ‘ibot ishlarini olib borish va shu kabi vazifalar hisoblanadi.

Diniy turizm – bu ziyorat, ibodat yoki diniy meros bilan tanishish maqsadida amalga oshiriladigan turizm turi hisoblanadi. UNWTO statistikalarga ko‘ra, har yili yuzlab million sayyohlar diniy ziyoratlarni amalga oshiradi. Diniy turizmning asosiy xususiyatlari sifatida odamlardagi ma’naviy ehtiyojlarni qondirish, turli ma’daniy me’ros obektlari bilan tanishish, ijtimoiy ahloqni kuchaytirishni hamda yana bir qancha xususiyatlarni aytish mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganimizda, diniy qadriyatlar asosida ekologik madaniyatni shakllantirish zamonaviy turizmni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Diniy qadriyatlar inson ongida tabiatga nisbatan mas’uliyatni oshirib, tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlashga va turli sohalarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Barqaror turizmni rivojlantirishda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarur. Diniy turizm esa ushbu jarayonda muhim rol o‘ynab, madaniy merosni asrash, iqtisodiy rivojlanish va jamiyatda ekologik ongni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy turizm siyosatida diniy va ekologik yondashuvlarni integratsiyalash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bilamizki, insondagi diniy qadriyat tuyg‘usi uning atrofga bo‘lgan shaxsiy majburiyatini ya’ni ichki majburiyat hissini uyg‘otadi. Inson ongida “Men tabitni asrashim shart” degan tushuncha doimo amal qiladi. Bu shaxsiy ahloqiy majburiyat esa odamdagi ekologik xulqning asosiy drayveri hisoblanadi.

Shuningdek yana bir e’tiborga moyil bo‘lgan jihat shundaki, ko‘pchilik ziyorat joylari chekka hududlarda va tabiat qo‘ynida joylashgan. Bu esa, o‘z navbatida turistlarda tabiat bilan yaqinlik xissini uyg‘otadi. Demak, Diniy maskanlarning tabiiy muhitda joylashuvi ekologik xulqni yanada rag‘batlantirad. Etibor beradigan bo‘lsak, ko‘p hollarda ziyortchilar odatda tashrif buyurgan joylariga nisbatan tartib va hurmatni saqlagan holatda harakat qilishadi.

Demak hamma jihatlarni e‘tiborga olib xulosa qiladigan bo‘lsak, din va tabiat o‘rtasida bir-biriga nisbatan juda katta ta’sir mavjud ekanligini his qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdunazarov L.M.

https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1318

2. United Nations World Tourism Organization

<https://www.unwto.org/religious-tourism>

3. United Nations Environment Programme

<https://www.unep.org/resources/report/global-waste-management-outlook>

4. Kim, J., & Kim, M. (2023). *Pro-environmental behavior of religious tourists: The role of religious values and environmental awareness*.

<https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/19389655231182090>